



ISSUE 7

AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

December 2024



International Scientific Journal
AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
December 2024

Tashkent 2024

TARBIYA PEDAGOGIKASI XUSUSIYATLARI

A.M.Mamatova

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchi*

Аннотация. В статье рассмотрены особенности науки педагогики воспитания, ее специфика и объекты, представлены подходы авторов по данным вопросам.

Abstract. The article examines the features of the science of pedagogy of education, its specifics and objects, and presents the authors' approaches to these issues.

Ключевые слова: педагогика воспитания, особенность и специфика, теория и дидактика, воспитание и образование, воспитание и практика.

Key words: pedagogy of education, peculiarity and specificity, theory and didactics, upbringing and education, upbringing and practice.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining ijrosining ta’minlash jarayonida ta’lim tizimida amalda bo‘lgan va tarixiy-tajribadan o‘tib kelayotgan fanlarni takomillashtirish masalalari ham muhim o‘rin tutadi[1]. Shu ma’noda mamlakatimizda fanlar tipologiyasini takomillashtirish va ular vositasida ilm-fan, ta’lim hamda tarbiya jearayonini amalga oshirish vazifalari dolzarb bo‘lib turibdi. Bu o‘rinda ana shunday masalalardan biri Tarbiya pedagogikasi fanining o‘ziga xos xususiyatlari taxliliga e’tiboringizni tortamiz.

Tarbiya pedagogikasi – fan sifatida. O‘zbekiston pedagogik ta’lim va tarbiya tajribasida muayyan fanlarning tipologik takomillashuvi keyingi besh yil davomida muhim hodisa sifatida davom etmoqda. Shu jihatdan Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan pedagogikamiz taraqqiyotida ilk bor Tarbiya o‘quv fani shakllantirilib, amaliyotga joriy etildi[2]. Mazkur tajriba tadriji davomida bugungi kunga kelib yangi Tarbiya pedagogikasi fani idrok etilmoqda. Tarbiya pedagogikasi yangi fan sifatida quyidagilarni qamrab olishini alohida eslatib o‘tish joiz:

- 1) fanning me’yoriy asoslari;
- 2) fanning nazariysi;
- 3) fanning didaktikasi;
- 4) fanning metodologiyasi.

Mazkur asoslarga binoan bugungi kunda mamlakatimizda Tarbiya pedagogikasi fani tarkib topganligini e’tiroya etish lozim. Shu sababli mazkur asoslarni ilmiy-nazariy va amaliy metodik jihatdan taxlil qilish dolzarb bo‘lib turibdi.

Tarbiya pedagogikasi fanining me’yoriy asoslarini uning mazmuni, huquqiy tayanchlari va ilmiy omillari tashkil qiladi. Bu masalalar batafsil taxlil qilinishi natijasida fanning aniq va asoslangan me’yoriy asoslari belgilab olinadi. Mazkur masalalar bo‘yicha pedagog olimlar va amaliyotchi o‘qituvchilarning yakdil yondashuvlarini shakllantirib

olish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada mamlakatimizda “Tarbiya” o‘quv fani bo‘yicha to‘plangan milliy tajribaning yutuqlariga asoslanish bizningcha, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu o‘rinda eslatib o‘tish joizki, tarbiya pedagogikasining nazariyasi, didaktikasi va metodologiyasi masalalari ishlab chiqilishi zaruriyat hisoblanadi.

Tarbiya pedagogikasining o‘ziga xos xususiyatlari. Yangi Tarbiya pedagogikasi fani o‘ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish Tarbiya pedagogikasining o‘ziga xos xususiyatlarini idrok etish imkonini beradi:

- 1) Yangi O‘zbekiston jamiyatida tarbiya g‘oyasi;
- 2) tarbiya nazariyasining innovation va zamonaviy asoslari;
- 3) zamonaviy tarbiya nazariyasining xorijiy tajribalari;
- 4) “Tarbiya ta’limi nazariyasi” masalalari;
- 5) tarbiya ta’limi innovatsiyasi;
- 6) tarbiya ta’limi tajribasi.

Mazkur xususiyatlar Tarbiya pedagogikasining negizini belgiliaydi. Shu sababli ushbu masalalar bo‘yicha ham tadqiqot ishlarini yaratish muhim vazifakardan bo‘lib turibdi.

Tarbiya pedagogikasining Yangi O‘zbekiston jamiyatidagi tarbiya g‘oyasi ham yangi tushunchalar ham,yondashuvlar va mazmunga asoslanishi kerak.Unga ko‘ra,milliylikdan umuminsoniylik sari g‘oyasining qabul qilinishi va bu g‘oyaning tarkibi belgilab olinishi kerak.

Tarbiya pedagogikasining tarbiya nazariyasidan innovation va zamonaviy asoslarni belgilab olish muhimdir.Unga ko‘ra,milliy tarbiya g‘oyasiga asoslanish shaxsni milliy qobiq iskanjasida qoldirmasligi yoki umuminsoniy tarbiya g‘oyasiga asoslanish shaxsni milliy tarbiya negizlaridan begonalashtirmasligi kerak.

Tarbiya pedagogikasining zamonaviy tarbiya nazariyasidan xorijiy mamlakatlar tajribasi bo‘yicha modellashtirilgan fikrlarga kelish maqsadga muvofiq bo‘ladi.Unga ko‘ra,asosiy e’tibor AQSH, Buyuk Britaniya,Germaniya kabi mamlakatlarning milliy tarbiya vositasida shaxsni umuminsoniy tarbiya qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash bo‘yicha tajribalarini o‘rganish va uning yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiya pedagogikasining muhim xususiyatlaridan biri uning ta’lim nazariyasidir. Unga ko‘ra, tarbiya ta’limini amalga oshirish, tarbiyani o‘qitish vositasida shaxsda tarkib toptirish va tarbiya ta’limining nazariyadan amaliyotga bog‘liqlik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu sababli mazkur masala bo‘yicha ham yangi tadqiqotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tarbiya pedagogikasining muhim xususiyatlaridan biri tarbiya ta’limi asoslaniladigan innovatsiyadir. Unga ko‘ra, tarbiya ta’limini amalga oshirish jarayonida o‘qitishning yangi innovatsiyalari – raqamli, kompyuterli, axborot-kommunikasion,

individual texnik kabi innovasion o'qitish shaklariga asoslanishning mexanizmlarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Bunda tarbiya ta'lumi nazariyadan amaliyotga yoki amaliyotdan nazariyaga yondashuvlari asosida tashkil qilinishi tarbiya ta'limga nisbatan butunlay yangi munosabatlar majmuini yuzaga keltirishini eslatib o'tish lozim.

Tarbiya pedagogikaschining muhim xususiyatlaridan biri tarbiya ta'dlimi tajribasidir. Unga ko'ra, mamlakatimizda tarkib topgan tarbiyalı o'qitish va ta'lum jarayonida tarbiyalash konteksti, xorijiy mamlakatlarning bevosita individual ta'lum asosida tarbiyani amalga oshirish konteksti tajribalari o'rganilishi, ulardan foydalanishning uyg'un metodikasi ishlab chiqilishi hamda tarbiyalanayotgan shaxsning bilim va fazilatlari uyg'unligini baholashga erishish omillarini yaratish muhim ahamiyatga egadir.

E'tibor berilsa, Tarbiya pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari nazariy, fundamental va ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etilishi bugungi kundagi muhim pedagogik vazifalardan biri bo'lib turibdi. Bunda Tarbiyaning ma'no-mazmuni tubdan o'zgaradi. Unga ko'ra, pedagogik olimlar tomonidan e'tirof etib kelinayotganidek, avval tarbiya, keyin ta'lum tashkil topgan tamoyili ilk rejaga chiqadi[3]. Mazkur tamoyilning mazmuniga ko'ra, insoniyat tamaddunida avvalo tarbiya yuzaga kelgan bo'lib, unda katta yoshlilar tomonidan bolalar yashash, muhit hamda o'zini anglash ko'nikmalariga moslashtirilgan, bu o'ziga xos tarbiya bo'lib, u keyinchalik ta'limgning paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Unda ta'lum tarbiyaning asoslari va ko'nikmalarini tarbiyalanuvchilarga tushuntirgan. Mana shu pedagogik tajriba bugungi kunda mamlakatimizda qaytadan tiklanganligini qayd etish lozim. Shu jihatdan bugungi kunda Tarbiya pedagogikasida aynan tarbiyaning ta'limi asoslari idrok etilishi va tadqiq etilishi birlamchi vazifalardan hisoblanadi.

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab mamlakatimiz ta'lum tizimida bilim berish ustuvor darajada qabul qilinib, bunda ta'limgning tarbiyadan ustuvorligi o'z ifodasini topdi. Natijada avval bilim, keyin tarbiya tamoyili kelib chiqdi. Bu o'z vaqtida ta'lum jarayonida tarbiyalash, tarbiyaviy tadbirlar vositasida tarbiyalash, individual tarbiyalash konseptlarining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Shu ma'noda bundan keyin Tarbiya pedagogikasi negizida tarbiyadan ta'limga yondashuvi tarkib topishi idrok etilmoqda. Shu jihatdjan tarbiyada ta'lum, tarbiya vositasida o'qitish, tarbiyaviy tadbirlarda bilim va ko'nikmalarga yo'naltirish, tarbiyalanganlik darajasi asosida bilim va ko'nikmalarning ko'rsatkichlarini baholash yondashuvlari ustuvor darajada ifodalanib boradi. Bularning barchasi Tarbiya pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Tarbiya pedagogikasining metodologiyasi. Tarbiya pedagogikasi me'yoriy asoslari, nazariya va didaktik omillar tayanchlariga ega bo'lgan holda, uning o'ziga xos metodologiyasi tarkib toptiriladi. Bu metodologiyada quyidagi yondashuvlarning ustuvor bo'lishi idrok etilmoqda:

- 1) "Maktab-oila bog'liqligi" metodi;

- 2) “Maktab-mahalla hamkorligi” metodi;
- 3) “Ta’lim jarayonida tarbiya” metodi;
- 4) “Tarbiya jarayonida ta’lim” metodi;
- 5) “Tarbiya texnologiyalari” metodi.

Bu metodlar mamlakatimizda Tarbiya pedagogikasining amaliyotga yo‘naltirilgan metodologiyaga asoslanishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan tarbiya mazmunining ko‘lamni kengayadi va u pedagogik masalalarning birlamchi asosi sifatida qabul qilinadi. Shu ma’noda mazkur metodlar bo‘yicha yangi ilmiy, nazariy va metodik ishlasmalarini yaratish dolzarb bo‘lib turibdi. Misol uchun, “tarbiya jarayonida ta’lim” metodiga ko‘ra, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish tadbirlari va ta’limi jarayonida shaxs tarbiyalanadi. Bunda taryubiya bevosita ta’limga asos bo‘luvchi vazifani bajaradi. Umuman olganda mazkur metod shaxs tarbiyasidan uning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘tish tadrijini bajaradi.

E’tibor berilsa, Tarbiya pedagogikasining metodologiyasi nisbatan hozirgi zamon talablari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli Pedagogika fanimizda Tarbiya konseptini qaytadan idrok etish, uning ko‘lamini belgilab olish va shaxsda shakllantiriladigan tarbiyaviy fazilatlarning indikatorlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada milliy pedagogik tajriba, xorijiy pedagogik an’analarning yutuqlari o‘rganilgani holda, masalaga butunlay yangicha yondashish va qo‘yilgan muammolarni zamonaviy talablar asosida innovasion yechimlarini topishga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiya pedagogikasi ta’lim va tarbiya jarayonimiz uchun mutlaqo yangi hodisa emas. Unda faqat tarbiyaning mazmuni, maqsad-muddaolari va vazifalari korreksiyalanib, yondashuvlar yangilanadi va tarbiya konseptining pedagogik ta’limda ustuvor qo‘yishi amalga oshiriladi. Shu sababli bunday yondashuv bilan jamiyatimizda tarbiya masalasini butunlay yangilash, uning asoslarini Yangi O‘zbekiston g‘oyalariga moslashtirish, tarbiya jarayonidagi talab indikatorlarini qayta ko‘rib chiqish, shaxsni erkin tarbiyalashning me’yorlarini belgilash, shaxs va jamiyat tarbiya extiyojining hozirgi kundagi xolatlarini asoslash taqozo etiladi. Buning uchun mamlakatimiz pedagog olimlari va amaliyotchi pedagoglarning o‘zaro hamkorligi, yakdilligi hamda fundamental yondashuvga asosdalanishi hodisasi tarkib toptirilishi kerak. Shunda bugungi kunda kun tartiga qo‘yilayotgan Tarbiya pedagogikasi konseptining asoslari aniq idrok etiladi.

Kezi kelganda shuni ta’kidlash lozimki, Tarbiya pedagogikasining xorijiy mamlakatlar pedagogik ta’limotlarida o‘ziga xos ko‘rinish va shakllari uchraydi. Milliy pedagogikamizda ham tarbiyadan ta’limga borish tajribasi mavjud. Aynan mana shu hodisalarni qiyosiy taxlil qilish, Tarbiya pedagogikasining aniq ob’yekti va vazifalarini belgilab olish taqozo etiladi.

Shunday qilib jamiyatimizda Tarbiya pedagogikasi ijtimoiy va pedagogik hodisais yangidan idrok etilmoqda. Bu borada amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarining mushtaraklishgi hamda yondashuvlarning individualligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Buning uchun mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim muassasalari va ilmiy pedagogik tadqiqot markazlari yagona yondashuv asosida tadqiqot ishlarini amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur masala bo‘yicha ilmiy, nazariy va metodik tadqiqotlar majmuini yaratish bugunig kundagi eng muhim pedagogik vazifalar sirasiga kiradi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi // www.ziyonet.uz
2. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2022
3. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. – Sankt-Peterburg, 2001

**TA'LIM OLUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARNING ROLI**

Nurmatova Shaxnozaxon Shavkatbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lism metodikasi kafedrasи o'qituvchisi

Dushamova Sharifa Rufat qizi


Boshlang'ich ta'lism fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchining pedagogik mahorati, salohiyatini o'stirib borishi, o'z bilimlari ustida ishlashi, o'quvchilar bilan mohirona ishlay olishi uchun qanday bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi zarurligi keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bilim, pedagogik texnika, pedagogik insonparvarlik, pedagogik qobiliyat, kasbiy mahorat, ko'nikma, malaka, kasb-hunar, ensiklopediya, psixologiya, urf-odat.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ayniqsa, yoshlar ta'lism va tarbiyasiga e'tibor, ularga zamonaviy bilim berish, ma'lumotini, malakasini oshirish kabi dolzarb muammolar hal etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinayotgan har bir qarorlarda, prezidentimiz farmonlarida yetuk va zamonaviy inson tarbiyasi va kasbiy mahoratini ta'lism muassasalarida oshirib borishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ustozlarning saviyasini va bilimini uzlusiz oshirib borish uchun shart-sharoit yaratilishi zarur.

Oliy ta'lism muassasalarida ushbu muammolarning yechimini topishda kasbiy faoliyatning pedagogik asoslarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi kasbiy faoliyatning pedagogik asoslarini, ya'ni "Pedagogik mahorat" tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis"[1]. Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib ustozning pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:



Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

- 1) pedagogik insonparvarlik yo‘nalishi;
- 2) kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish;
- 3) pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish;
- 4) pedagogik texnika sirlarini puxta egallahash.

Barcha kasblar orasida ustoz kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, ustoz yosh avlod qalbi kamolotining me’mori, yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallahashlarida ko‘maklashadi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqsodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu ma’suliyat ustozdan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo’llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Buning uchun doimo ustozning kasbiy mahoratini, ko‘nikma va malakalarini oshirib borish, g‘amxo‘rlik qilish, unga zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko‘rsatish, ustozning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko‘maklashish lozim. Shunga, asosan, “Pedagogik mahorat”, “Pedagogik kompetentsiya”, “Pedagogik hamkorlik” fanlari mahoratli ustozni tayyorlashga xizmat qiladi. U ustozlar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o‘rgatuvchi va uni takomillashtirish to‘g‘risida ma’lumotlar berib boruvchi fan bo‘lib, o‘qituvchida

pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

Ustoz o'z pedagogik faoliyatni jarayonida faoliyatning quydagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim: pedagogik faoliyatning maqsadi, pedagogik faoliyatning obyekti va subyekti, pedagogik faoliyatning vositasi. Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmanan ustoz ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, ustozning faoliyat mezonini begilab beradi. Ustozning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obyektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi o'quvchilar guruhi hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari - ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa ma'suldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim-tarbiya berish faoliyatini bajaradilar [2].

Ustoz pedagogik faoliyatining ijobjiy natijalari mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi. Ustozning pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi. Ma'lum bir fanning mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik-psixologik ta'limot nuqtai-nazaridan yondashish, ta'lim-tarbiyani milliy an'analarimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun ustoz mahoratining zarurligi haqidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o'rinni olgan. Shunga ko'ra, kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar olib borish zarur. Bunda ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun pedagog quydagi vazifalarni muntazam bajarib borish orqali amalga oshiradi:

1) ustozlar milliy urf-odat va an'analarimizda, O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj hamda havasni rivojlantirib boradilar;

2) egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir ustoz o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi;

3) o'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish, boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar;

4) o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini takomillashtirish uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar;

5) yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan foydalanish asosida o‘z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi pedagogni zamon bilan hamnafas bo‘lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va keljakni aniq ko‘ra olishga o‘rgatadi. Har bir pedagog shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o‘z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o‘rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo‘lishni tarbiyalaydi.

Pedagog olimlardan biri pedagogik mahoratni pedagogik san’atning bir qismi sifatida ta’riflab, shunday yozadi: “Pedagogik mahorat deganda, ustozning pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi”. Uning fikriga ko‘ra, quyidagi to‘rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi:

- o‘qituvchilik kasbiga sadoqat;
- o‘z fanini o‘qitish metodikasini mukammal bilishi;
- pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay bilishi [3].

Shuni alohida qayd etib o‘tish zarurki, o‘qituvchi kasbi murakkab va ma’suliyatlari jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo‘lmish insonning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanib, u bilan muloqot olib boradi. Ongli va tirik jonzot esa, aqliy, ruhiy, jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo‘ladi

Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta’minlovchi omillar quyidagilar: a) ixtisoslik bo‘yicha o‘quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o‘quv fanlari bilan o‘zaro aloqadorligini ta’minalash malakasiga ega bo‘lishi; b) ta’lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini obyektiv nazorat qilishi va baholashi; v) ta’lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o‘z faoliyatini tashkil etishi; g) o‘quv-tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik-psixologik, metodik ma’lumotga ega bo‘lishi; d) fanlarni o‘qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi; e) jamoani “ko‘ra bilish”, o‘quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ular uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo‘la olish, o‘z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsatishning shakl, usul,

vositalaridan xabardor bo‘lishi; j) o‘z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo)ni takomillashtirish malakasiga ega bo‘lishi. Yuqorida sanab o‘tilgan xislatlar barchasi pedagogda mujassam bo‘lsa, mukammal darajadagi bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan o‘qituvchi hisoblanadi. [4].

Xulosa qilib shuni ta’kidlab o‘tmochiman, pedagogik mahoratga ega bo‘lish, o‘qituvchi uchun ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlovchi zamin bo‘lib qolmasdan, ayni vqtda uning jamiyatdagi obro-e’tiborini ham oshiradi, o‘qituvchiga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan holi bo‘lish, o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. O‘qituvchi barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo‘lib, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratni ham namoyon eta olishi yetuk o‘qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kan-Kalik V.A., Nikandrov N.D. Pedagogicheskoe tvorchestvo: Biblioteka uchitelya i vospitatatelya. - M.: Pedagogika, 2010. - 144 s.
2. Karimov I.I. O‘qituvchi, ustoz, murabbiy....: Talabalar va yosh o‘qituvchilar uchun risola. - ukon: VDPI, 2009. - 99 b.
3. Xoliquov A. Pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya, 2010.
4. Kaykovus. Qobusnom / Forschadan Muxdmmad-Rizo Ogaxiy tarjimasi, S.Dolimov. -T.: O‘qituvchi, 2006. - 208 b.
5. Nurmataova, S., & Ilhomova, D. (2024). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING DARSGA IJOBIY MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOLALAR ADABIYOTINING ROLI. Interpretation and researches.

**NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARНИ RIVOJLANTIRISHDA
LOGOPEDIK O'YINLARNING AHAMIYATI**

Egamberdiyeva Nigora Azizovna

*CHDPU, Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedirasi o'qtuvchisi
nigoraazizovna1991@gmail.com*

Аннотация: В данной статье отмечено значение логопедических игр в устранении дефектов речи у детей с нарушениями речи. Рассмотрены методы совершенствования учебно-воспитательного и коррекционного развития детей с нарушениями речи посредством логопедических игр.

Abstract: In this article, the importance of logopedic games in the elimination of speech defects in speech-impaired children is noted. Ways to improve the educational and rehabilitation development of speech-impaired children through speech therapy games are considered.

ключевые слова: логопедическая игра, алалия, дизартрия, экзогенное, эндогенное, коммуникативный диалог, эмоционально-волевая, педагогическая запущенность

Keywords: logopedic game, alalia, dysarthria, exogenous, endogenous, communicative dialogue, emotional-volitional, pedagogical neglect

Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerak-ki mustaqillikka erishganimizdan so'ng hukumatimiz tomonidan o'sib ulg'ayayotgan bolajonlarimizning ma'naviy- axloqiy tarbiyasiga, uni amalga oshirishda asosiy omillardan sanaluvchi til o'qitish masalalariga kuchli e'tibor qaratish dolzarb muammolarga katta e'tibor qaratildi. Shuningdek hozirgi kunda maktabgacha va mакtab yoshidagi bolalarda nutqning kechikishi kuzatilmoqda. Ayniqsa maktabgacha yoshidagi bolalarda nutq kechikishi aqliy rivojlanishning ortda qolishi ko'p hollarda kuzatilmoqda. Nutqning kechikishi va aqliy rivojlanishning ortda qolishi hozirgi kunda elektron gadgetlarga bog'lanib qolishi natijasida kuzatilmoqda. Buning oldini olish uchun bolalarni didaktik o'yinlar orqali bolalarni o'yinlarga jalgilish kerak. Rivojlartiruvchi o'yinlar orqali gadgetlardan uzoqroq qilishimiz kerak.

Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi. Bolalar o'sib, ulg'aygani sari ularning nutgi ham rivojlanib boradi. Bu davrda

ba'zan nutqning ma'lum darajadagi buzilishlari kuzatilishi mumkin. Nutq kamchiliklarining kelib chiqishi sabablarini oilada har bir ota-onasida muktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyachilar, muktabda o'qituvchilar bilishlari zarur. Chunki nutq kishilarning til vositasi orqali aloqa jarayonining tarixan tarkib topgan formasidir. Shuningdek, nutq rang-barang ifodali tovushlarning majmuasidan iborat. Nutq bolalarda asta-sekin shakllanadi, bola o'sib rivojlanib boradi. Aslida bola nutqning o'sib borishidagi hal qiluvchi bosqich bir yarim yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda bolaning nutqi muayyan sur'atda, besh yoshdan keyin esa nutq intensiv ravishda xilma-xil o'sib boradi. Biroq ayrim bolalarning nutqiy rivojlanishida bir qator kamchiliklar uchraydi va ma'lum bir sababga bog'liq bo'ladi. Nutq buzilishining ko'pgina turlari markaziy asab tizimining organic shikastlanishi bilan bog'liq bo'lib, u logoped va nevropatolog-shifokor yoki psixonevrologning hamkorlikda ishlashi bilan aniqlanishi mumkin. Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharotlari farq qilinadi. Nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko'rib chiqishda evolyusion-dinamik yondoshiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, anomal rivojlanishining umumiyligi qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir (I. M. Sechenov, L. V. Vigotskiy, V. I. Lubovskiy).

Nutq buzilishlari sabablar orasiga S.M.Dobrogaev quidagilarni ajratib ko'rsatgan:

- 1.Oliy nerv faoliyati kasalliklari
- 2.Anotamik nutq apparatida patalogik o'zgarishlar
- 3.Bolalalikdan tarbiyaning yetishmaganligi
- 4.Organizmning umumiyligi nevropatik holati

Muktabgacha yoshudagi bolalarning asosiy faoliyati bu o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bola ham aqlan, ham jismonan rivojlanadi. O'yin bolani eng asosiy faoliyat turi hisoblanadi. O'yin orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. Bolada predmetli-o'yin faoliyati jarayonida to'plangan tassurotlar yordamida nutq rivojlanishiga dastlabki zamin bo'lib hizmat qiladi. A.P.Usova shunday degan edi "Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish – ularni tarbiyalash demakdir. Bolalarning tarbiyalanishining o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rjanmaydi, balki o'z xayoti bilan yashaydi".

Bolalar bog'chasining pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan muktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi.

Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin muktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;

- o‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o‘yin bolalarga ta’lim va tarbiya bershining metod va usulidir;
- o‘yin bolalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir;

Logopedik o‘yinlar mактабгача tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladi. Logopedik o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazishda logoped turli nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning qobiliyatlarini e’tiborga olishi lozim.

Umumiy va nutq matorik asining buzilishlari bo‘lgan bolalarning (dizartriklarda) o‘yinda tez charchab qolishi kuzatiladi. Harakat bezovtaligi, o‘ziga ishonchsizlik, nutqiy charchashlar, jamoada o‘yinga kirishishda qiyinchilik tug‘diradi. Alalik bolalarda, o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yin mazmuni maqsadga yo‘naltirilgan harakatni bildirmaydi. O‘yin ularda bir xil mazmunni va taqlidni aks ettiradi. Duduqlanuvchi bolalarda o‘yinda uyatchanlik, noto‘g‘ri nutqidan qo‘rqib, o‘yinga tez kirisha olmasliklarini kuzatamiz. Ular o‘yinda ko‘pincha tomoshabin bo‘ladilar yoki ikkilamchi rollarni tanlaydilar. O‘yin bolalarning aqliy axloqiy jismoniy va estetik rivojlanishida asosiy faoliyatlardan biridir. Bolalar bilan olib boriladigan logopedik o‘yinlar tovushlar talaffuzi, lug‘at, nutqning tempi va ravonligini normaga keltirish ustida ish olib boriladi.

Logopedik o‘yinlarni o‘tkazishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarni to‘g‘ri nafas olish va nafas chiqarishga o‘rgatish;
2. Ovozni rivojlantirish. Past va baland ovozda gapirishga o‘rgatish;
3. Eshituv diqqati va nutqni eshitishni rivojlantirish;
4. Tovushlar talaffuzidagi kam chiliklarni bartaraf etish;
5. Bolalarda logopedik o‘yinlar orqali duduqlanishni bartaraf etish;
6. Bolalarda qo‘lining mayda harakatlari, hamda umumiylar harakatlarni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, logopedik o‘yinlar bolalarda ham aqliy ham jismoniy rivojlanishiga katta yordam beradi. Logopedik o‘yinlar bolalarda nutq rivojlanishiga ham yordam beradi. Bolalarda nutqni faqat mexanik ta’sir asosida chiqarish emas balki, o‘yinlar orqali ham taqlid orqali ham chiqarsa bo‘ladi. Bunda logoped tajribali bo‘lishi kerak.

O‘yin bola hayotida eng kerakli jarayon va faoliyat turi hisoblanadi. O‘yin oldingi zamonlardan ya’ni ota-bobolarimizda bizga o‘tib kelayotgan faoliyat hisoblanadi. O‘yin bolani sog‘liq taraflama ham rivojlanishiga yordam beradi. O‘yinni to‘g‘ri tanlash va bolalar bilan to‘g‘ri o‘tkazish juda muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri tashkil qilingan o‘yin nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda yangi so‘zlarni qo‘llash uchun ehtiyoj tug‘diradi, ularning lug‘at boyligi oshadi, nutqidagi kamchiliklar korreksiyanib boradi. O‘yin mashqlari tortinchoq bolalarni faollashtirishga yordam beradi. O‘yin bolalarning nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘yin va mashqlarda nutqiy material ongli ravishda o‘zlashtirilib, mexanik yodlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Logoped o‘yinlarni

o‘tkazish orqali bolada nutqidan uyalmaslik, muloqotga kirishishi, to‘g‘ri va ravon gapirish kabi sifatlarni rivojlantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.M.Y.Ayupova. Logopediya. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019-yil
- 2.Islomova, O. (2022). NUTQ BUZILISHLARI PSIXOPROFILAKTIKASIDA TURLI XIL PSIXOLOGIK O‘YINLARNI TASHKIL ETISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4821>
3. Ozoda Islomova, UMUMTA’LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI SHAXOBCHALARDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPLEKS LOGOPEDIK TIZIMLI ISHLARNI TASHKIL ETISH , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 2 № 6 (2022):
4. Malikaxon Qodirova, MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR Ning BILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta’limda Pedagogika va psixologiya fanlari

ERTA YOSHDA LOGOPEDIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING AFZALLIKLARI

Turdiqulova Jasmina Hasan qizi

CHDPU, Pedagogika fakulteti Logopediya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
turdiqulovajasmina2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola, bolalik davrida logopedik muammolarni bartaraf etishning ahamiyatini va afzalliklarini tahlil qiladi.

Abstract. This article analyzes the importance and benefits of addressing speech problems in childhood.

Kalit so‘zlar: logopedik yordam, erta yosh, nutq rivojlanishi, kommunikatsiya qobiliyatları, o‘qish va yozish, logopedik muammolar, davolash, terapiya, bolalar, individual yondashuv

Key words: Speech therapy, early age, speech development, communication skills, reading and writing, speech therapy problems, treatment, therapy, children, individual approach.

KIRISH: Bolalik davrida nutq va kommunikatsiya muammolarining yuzaga kelishi, bolaning umumiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatishi mumkin. Nutqning to‘g‘ri rivojlanishi, bola uchun faqat ijtimoiy va psixologik ahamiyatga ega emas, balki uning akademik muvaffaqiyatlari va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Afsuski, dunyo bo‘ylab bolalarning taxminan 5-10% i logopedik muammolar bilan yuzlashadi, va bu raqam ayrim mintaqalarda 15% gacha ko‘tarilishi mumkin (World Health Organization, 2021). Ushbu muammolar orasida nutq kechikishi, talaffuz xatoliklari, so‘z boyligining cheklanganligi va boshqa kommunikatsion qiyinchiliklar mavjud.

Erta yoshda logopedik muammolarni aniqlash va davolash, nafaqat bolaning nutq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, balki uning psixologik holati va ijtimoiy ko‘nikmalarini yaxshilash uchun ham muhimdir. Erta davrda amalga oshirilgan logopedik yordam, bolaning o‘zini anglashini oshiradi, boshqa bolalar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatishiga yordam beradi va o‘qish hamda yozish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Maqolada ko‘rsatilganidek, erta yoshda amalga oshirilgan logopedik terapiya orqali bolalarning kommunikatsiya ko‘nikmalari faollashadi, va bu ular o‘qishda muvaffaqiyatga erishishlariga, shuningdek, o‘z-o‘zini anglash darajasining oshishiga yordam beradi.

O‘zining ijtimoiy va psixologik jihatlari bilan, logopedik muammolarni erta davolash bolalar uchun muhim imkoniya yaratadi. Dunyo bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta yoshda nutq kechikishi va logopedik muammolarni bartaraf etishda muvaffaqiyat darajasi juda yuqori (American Speech-Language-Hearing Association, 2020). Bu davrda amalga oshirilgan logopedik yordam, bolalarda faqat nutq

va til ko'nikmalarini yaxshilash bilan birga, ularning ijtimoiy o'zaro aloqalarini ham mustahkamlaydi, bu esa keyingi o'qish jarayonlari va ijtimoiy integratsiya uchun zarur bo'lgan asosiy omillardir.

Shuningdek, so'nggi yillarda, logopedik xizmatlarning erta yoshda bolalarga taqdim etilishining afzalliklari ilmiy jihatdan chuqur o'rganilib, turli pedagogik yondashuvlar, individual muolajalar va texnologiyalarning ta'siri to'g'risida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu maqola, erta yoshda logopedik muammolarni bartaraf etishning afzalliklari, uning bolaning umumiy rivojlanishiga ta'siri va muvaffaqiyatli terapiya strategiyalarini tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumotlar tahlili:

Erta yoshda logopedik muammolarni bartaraf etishning afzalliklari haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar, logopedik yordamning samaradorligini ko'rsatmoqda. Dunyo bo'ylab nutq rivojlanishi kechikayotgan bolalar soni har yili ortib bormoqda. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlarida 3-5 yoshdagi bolalar orasida nutq va til bo'yicha rivojlanish kechikishi bilan bog'liq bo'lgan muammolar taxminan 7% ni tashkil etadi (American Speech-Language-Hearing Association, 2020). Yevropada esa, erta yoshda nutq va til kechikishi bilan bog'liq holatlar 5%-10% gacha tarqalgan (European Speech-Language Therapy Association, 2022).

O'zbekistonda ham bu masala ahamiyatli bo'lib, mamlakatdagi bolalar orasida logopedik muammolarni aniqlash va davolash uchun qo'llanilayotgan metodlarning samaradorligi har yili yaxshilanib borayotgan bo'lsa-da, bu sohada hali ham ko'plab muammolar mavjud. Statistika bo'yicha, O'zbekistonda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida nutq kechikishi bilan bog'liq muammolarning 12-15% tashkil etishi taxmin qilinadi (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi, 2021). Ushbu ko'rsatkich, logopedik yordamni erta bosqichda taqdim etish zarurligini yana bir bor isbotlaydi.[1]

O'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra, logopedik muammolarni erta davolash bolaning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq rivojlanishidagi kechikishlar, bolalarning o'zini anglashiga, ijtimoiy integratsiyasiga va o'ziga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta yoshda amalga oshirilgan logopedik yordam bolalarning ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini 40% gacha yaxshilashga yordam beradi (National Institute on Deafness and Other Communication Disorders, 2022). Bu, o'z navbatida, ularning akademik muvaffaqiyatlariga va umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Metodologiya:

Maqolada taqdim etilgan tahlil va yondashuvlar, bolalar orasida logopedik muammolarni bartaraf etishning samaradorligini o'rganish uchun amalga oshirilgan bir

qator ilmiy metodlarga asoslanadi. Ushbu tadqiqotda, logopedik terapiyaning ta'siri bo'yicha turli statistik ma'lumotlar, ilmiy tadqiqotlar va tahlil etilgan amaliyotlar hisobga olinadi. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi:

Kvantitativ tahlil: Tadqiqotning birinchi bosqichida, turli davlatlarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu usul, logopedik yordamning samaradorligini o'lchanadi. Masalan, erta yoshdagi bolalarda nutq kechikishining tezligi, logopedik yordamni o'tkazishning vaqtincha samaralari, va ijtimoiy-muloqot ko'nikmalarining yaxshilanishi kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Eksperimental metod: Ushbu metod yordamida, o'ziga xos tajribaviy guruuhlar asosida bolalar bilan o'tkazilgan logopedik terapiya seanslarining ta'siri o'r ganiladi. Tadqiqotda guruuhlar (terapiya olgan va olmaydigan) taqqoslanib, nutq rivojlanishining o'zgarishi, bolalar orasida nutq va til bo'yicha yutuqlar tahlil qilinadi. Bu metod yordamida, logopedik yondashuvning turli shakllarining samaradorligi va individual yondashuvlarining bolalar uchun qanday ijobiy natijalar keltirishi aniqlanadi.

Qualitative (Sifatli) tahlil: Logopedik terapiyaning psixologik va ijtimoiy ta'sirini o'r ganish uchun, bolaning oilaviy muhitini, o'qish jarayonlarini va ijtimoiy aloqalarini kuzatish usulidan foydalaniadi. Bu metod yordamida, logopedik yordamning bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi, o'zi bilan bo'lgan munosabati va jamiyatga moslashishi haqida chuqurroq tahlil qilinadi.

Anketalar va so'rovnomalar: Tadqiqotda ishtirok etgan o'qituvchilar, ota-onalar va logopediya mutaxassislari bilan so'rovlар o'tkaziladi. So'rovnomalar yordamida, logopedik terapiya metodlarining samaradorligi haqida fikrlar yig'iladi va bolalar o'rtasida muloqotning qanday o'zgarishiga erishilganligi baholanadi. Tadqiqotda amalga oshirilgan so'rovlар, umumiyligi ijtimoiy ko'nikmalar va akademik yutuqlarni o'lchanishga imkon beradi.

Bu metodologik yondashuvlar, erta yoshda logopedik muammolarni bartaraf etishning samaradorligini chuqur tahlil qilish va turli yondashuvlarning ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Ularning kombinatsiyasi, bolaning rivojlanishida ijobiy o'zgarishlar yaratish va logopedik yordamning ijtimoiy va psixologik afzalliklarini aniqroq ko'rsatishga xizmat qiladi.[2]

Erta Logopedik Yordamning Samaradorligi

Erta yoshdagi bolalarda logopedik yordamni taqdim etishning afzalliklari haqida ilmiy tadqiqotlar ko'plab ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Misol uchun, 2021-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida o'tkazilgan bir tadqiqotda, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga erta logopedik yordam berilganida, ularning nutq va til rivojlanishi 35%-50% gacha yaxshilanganani aniqlangan (American Journal of Speech-Language Pathology, 2021). Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadi, erta davrda nutq va til bo'yicha kechikishlarni

bartaraf etish, bolalarning o‘qish va yozish qobiliyatlarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi.

Biroq, ba’zi mutaxassislar, erkin o‘qish va ijtimoiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning muhimligini ta’kidlashmoqda, ammo logopedik yordamni erta yoshda boshlashning har doim ham muvaffaqiyatl bo‘lishi mumkin emasligini aytadilar. Ayniqsa, ba’zi bolalar uchun nutq rivojlanishi faqat vaqt o‘tishi bilan tabiiy ravishda yaxshilanadi, deb hisoblashadi. Shunday qilib, ba’zi holatlarda logopedik aralashuvlar ortiqcha bo‘lishi va bolaning tabiiy rivojlanishiga xalaqit berishi mumkin. Ert logopedik yordamning samaradorligi haqida bahslar davom etmoqda, ammo umumiy tendensiya shuki, erta davrda muammolarni aniqlash va bartaraf etish bolalarda ijtimoiy va akademik yutuqlarga olib keladi.

Nutq Kechikishining Ijtimoiy Ta’siri

Nutq va til rivojlanishidagi kechikishlar bolalarning ijtimoiy muloqotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutq va til bo‘yicha kechikishi bo‘lgan bolalar ko‘proq ijtimoiy izolyatsiyani boshdan kechiradilar, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi va psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, bu bolalarga erta logopedik yordam berilishi ularning ijtimoiy integratsiyasi uchun zarur bo‘lgan asosiy vositadir. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadi: logopedik muolaja va nutq rivojlanishi bo‘yicha mashqlar bilan shug‘ullangan bolalar, nutqdagi kechikishni yengib o‘tgandan so‘ng, ijtimoiy muloqotga bo‘lgan ishtiyoqini 40%-50% gacha oshirishadi (National Institute on Deafness and Other Communication Disorders, 2022). Bu, shubhasiz, erta logopedik yordamning eng katta afzalliklaridan biridir. Ammo ba’zi psixologlar, nutq va til rivojlanishidagi kechikishlarning ijtimoiy ta’siriga qaraganda, bolaning umumiy psixologik holati va oilaviy muhitning ahamiyatini ko‘proq ta’kidlaydilar. Ular, nutq rivojlanishining kechikishi va ijtimoiy izolyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri aniqlashda ehtiyyotkorlikni tavsiya etadilar.

Logopedik Terapiyaning Muvaffaqiyatiga Ta’sir Etuvchi Faktorlar

Erta yoshdagagi bolalarga logopedik yordamning samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, logopedik terapiyaning muvaffaqiyati faqat bolaning nutq kechikishining darajasiga bog‘liq emas, balki ularning oilaviy muhitiga, ta’lim muassasalaridagi yondashuvlarga va logopedik yordamning individual xususiyatlariha ham bevosita ta’sir qiladi. Amerikada olib borilgan bir tadqiqotda, erta logopedik yordamga qatnashgan bolalar 50% holatlarda, ular oilaviy muhitda yuqori darajada qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa, muvaffaqiyatl natijalarga erishganini ko‘rsatdi [3] (American Speech-Language-Hearing Association, 2020). Shuningdek, bolalar o‘qish tizimida qanday qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa, logopedik yordamning samaradorligi o‘sha darajada bo‘ladi. Agar o‘qituvchi va logoped bolaga moslashuvchan va individual yondashuvni qo‘llagan bo‘lsa, natijalar ancha ijobiy bo‘ladi.

Biroq, ba'zi mutaxassislar shuni ta'kidlaydiki, ba'zi oilaviy va ijtimoiy omillar bolalarning muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, iqtisodiy qiyinchiliklar yoki ijtimoiy yordam tizimlarining etishmasligi, bolaning logopedik yordamni olishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun logopedik terapiyaning samaradorligini aniqlashda faqat bolalarning nutq rivojlanishi emas, balki ularning ijtimoiy-psixologik holati ham hisobga olinishi zarur.[4]

Logopedik Yordamning Ta'limganligi Rolini Ko'rib Chiqish

Logopedik yordamning ta'limganligiga ta'siri va uning muvaffaqiyatini ko'rib chiqish, erta davrda nutq kechikishi va boshqa logopedik muammolarni davolashning afzalliklarini yanada aniqroq ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarda logopedik muammolarni bartaraf etish, nafaqat ularning nutq rivojlanishiga, balki o'qish va yozish ko'nikmalarining tezda yaxshilanishiga ham yordam beradi. O'r ganilgan ma'lumotlarga ko'ra, erta yoshda logopedik yordam olingan bolalar 30%-40% tezroq o'qish va yozish ko'nikmalarini egallashadi[5] (National Reading Panel, 2021).

Biroq, bu yondashuvning ham salbiy tomonlari bor. Ba'zi ta'limganligi muassasalarida logopedik yordamni taqdim etish uchun yetarli resurslar va mutaxassislar mavjud emas. Bu, ayniqsa, kam ta'minlangan hududlarda va rivojlanayotgan mamlakatlarda dolzarb muammo hisoblanadi. Logopedik yordamni keng tarqatish uchun ta'limganligi tizimining, davlatning va jamoatchilikning ko'proq e'tiborini jalb qilish zarurati mavjud.[6]

Xulosa

Ushbu maqolada, erta yoshda bolalardagi logopedik muammolarni bartaraf etishning ahamiyati va afzalliklari tahlil qilindi. Tadqiqotlar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, erta logopedik yordam bolalarning nutq rivojlanishini faollashtirish, ijtimoiy integratsiyasini yaxshilash, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlanishda katta rol o'ynaydi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda logopedik muammolarni aniqlash va ularni erta davolash bolalarning psixologik va akademik rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun zarur asos yaratadi.

Erta logopedik yordamni taqdim etishning ijobiy natijalari faqat nutq va til rivojlanishining yaxshilanishi bilan cheklanib qolmaydi, balki bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyatni ta'minlaydi va psixologik farovonlikni yaxshilaydi. Biroq, bu jarayonda oilaviy muhit, ta'limganligi tizimi va ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi, shuning uchun logopedik yordamning samaradorligi ko'p jihatdan individual yondashuv va holatga qarab o'zgaradi.

Logopedik terapiyaning samaradorligini oshirish uchun jamiyat, ta'limganligi tizimi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur. Bu, nafaqat logopedik xizmatlarni kengaytirish, balki bolalarning ijtimoiy muhitida ular uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish uchun ham muhimdir. Shunday qilib, erta yoshda logopedik muammolarni bartaraf etish, nafaqat nutq rivojlanishini, balki bolaning umumiyligi rivojlanishiga salbiy

ta'sir ko'rsatadigan omillarning oldini olishga xizmat qiladi, bu esa uning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. American Speech-Language-Hearing Association (ASHA)

Sayt: <https://www.asha.org/>

Foydalanish: ASHA – nutq, til va eshitish bilan bog'liq masalalarni o'rganadigan ilmiy tashkilotdir. U erda logopedik muammolarni bartaraf etish, nutq rivojlanishining kechikishi, va boshqa muammolar haqida ilmiy maqolalar, tadqiqotlar va statistika mavjud.

2. National Institute on Deafness and Other Communication Disorders (NIDCD)

Sayt: <https://www.nidcd.nih.gov/>

Foydalanish: Bu saytda nutq, til va eshitish muammolari, shuningdek, logopedik yondashuvlar haqida keng ma'lumotlar mavjud. Erta yoshda logopedik yordamning samaradorligi va ta'siri haqida ilmiy ma'lumotlar olish mumkin.

3. American Journal of Speech-Language Pathology

Sayt: <https://pubs.asha.org/journal/ajslp>

Foydalanish: Bu ilmiy jurnal logopedik terapiya va nutq rivojlanishiga oid so'nggi tadqiqotlarni nashr etadi. Jurnalda erta yoshdagি bolalarda nutq va til kechikishiga qarshi olib borilgan tadqiqotlar haqida maqolalar mavjud.

4. European Speech-Language Therapy Association (ESLA)

Sayt: <https://www.esla.info/>

Foydalanish: Yevropada logopediya va nutq muammolarini o'rganadigan tashkilot bo'lib, erta yoshda logopedik yordamning samaradorligi haqida ilmiy ma'lumotlar taqdim etadi.

5. National Reading Panel Report (2000)

Sayt:

<https://www.nichd.nih.gov/health/topics/reading/conditioninfo/Pages/what.aspx>

Foydalanish: Bu hisobot, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Erta yoshda logopedik yordam bolalarning o'qish va yozish qobiliyatlarini qanday yaxshilashini tushuntiradi.

6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi

Sayt: <https://www.minzdrav.uz/>

Foydalanish: O'zbekistonda logopedik yordam va nutq rivojlanishidagi kechikish masalalari bo'yicha hukumat ma'lumotlari va statistikalarini olish mumkin. Mahalliy amaliyot va tadqiqotlar haqidagi ma'lumotlar mavjud.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARING
AHAMIYATI

Bekturdiyeva Marjona Qaxramon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich talim fakulteti talabasi

Anatatsiya. Siz ushbu maqolada raqamli ta‘lim muhitida boshlang‘ich ta‘limga innovatsion yondashuvlar bilan yondashish va o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish borasida ma‘lumotlar olasiz.

Abstract. In this article, you will learn about innovative approaches to elementary education in a digital learning environment and how to increase students interest in science.

Kalit so‘zlar : Raqamli ta‘lim, muammoli ta‘lim, Sun‘iy intellekt, elektron darsliklar va texnologiyalar.

Keywords: Digital education, problem-based learning, Artificial intelligence, electronic textbooks and technologies.

Kirish Bugungi kunda biz o‘z hayotimizning asosiy qismini virtual dunyoga o‘tkazayapmiz: kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, smartfon va boshqa moslamalar. Biz u yerda suhbatlashamiz, do‘srlar orttiramiz, ishlaymiz, fotosuratlar jo‘natamiz, taassurotlar, fikrlarimizni almashamiz, o‘yinlardan foydalanamiz, qiziqarli filmlar ko‘ramiz, “like”lar bosamiz, malumotlar joylashtiramiz. Axborot resurslarining barcha toifadagi azosi hayotiga yosh bolalardan tortib, qariyalarigacha kirib borganligi–axborot texnologiyalari, zamonaviy jamiyatni qiziqtirgan barcha muammolarni hal qilishga qodir degan fikrni shakllantiradi. Elektron ta‘lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi topshiriqlarni yaratmoqda. Zarur imkoniyatlar qatoriga ta‘limga oid muammolarni hal qilish, ta‘lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish manbalarni ko‘paytirish kiradi.

Mavzuning dolzarbliyi Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab hamma ta‘lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi ya‘ni, zamonavilashuvga asos boladi. Raqamlashtirish, o‘rganilgan ta‘limot va bilimlarni almashish uchun imkoniyatlar yaratib, odamlarga kengroq ma‘lumot olish va kundalik hayotlarida to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Kelgusida, ta‘lim muhitida raqamlashtirish bilan bog‘liq katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Elektron ta‘lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi topshiriqlarni yaratmoqda. Asosiy imkoniyatlar safiga ta‘limga oid muammolarni hal qilish, ta‘lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish, vositalarini ko‘paytirish kiradi. Raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta‘limdagি o‘rnini va rolini anglash muhimligi, matabgacha va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi va didaktikasi sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlarda o‘z aksini topishi kerak. Bugungi kunda matabgacha va boshlang‘ich ta‘lim integratsiyasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash muammolari kelgusida rivojlanish strategiyasini va unga yo‘naltirilgan yo‘nalishni

saralash bilan bog'liq izlanishlarga sabab bo'ladi. Kelgusida raqobatdosh ta'lim va tadqiqot modeliga o'tish uchun raqamli transformatsiya dasturi bundan buyon ishlab chiqilishi kerakligi aniq. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynaydi, chunki ular o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilarning ta'lim olish usullarini o'zgartiradi va ularga yangi ko'nikmalarni o'rganish imkonini beradi. Raqamli resurslar va o'quv jarayoni: raqamli resurslar, masalan, onlayn darsliklar, video darslar va interaktiv o'yinlar, o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlashda yordam beradigan ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Bu resurslar orqali o'quvchilar tajribali va yuqori sifatli malumotlardan foydalana oladi. O'quvchilarning faoliyatini oshirish-raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlashga va ijodiy fikrlashga undovchi muhitda oqiydilar. Bu ularga o'z fikrlarini ifoda etish, masalalarni hal qilishda yangi yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar o'qituvchilar uchun darslarni boshqarishni osonlashtiradi va o'quvchilarning yutuqlarini kuzatib borish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, o'qituvchilar uchun bilimlarni individuallashtirish va o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash jarayonida katta yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni foydalanuvchilarga yetarlicha talim berish va ularni katta ehtiyojkorlik bilan boshqarish zarurati bor, chunki bu sohada xavflar ham mavjud. Ta'lim va tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar yutuqlarining kafolatlari va keyinchalik katta sinflarda ham muvaffaqiyatli o'qish kafolatlari haqida so'z yuritilgan. Ta'lim muhitini raqamlashtirish turli usullarda amalga oshirilishi mumkin: -mavjud o'quv materiallarini ,shu bilan birga ma'ruzalar, prezентatsiyalar, darsliklar, mustaqil ish uchun topshiriqlarni va bilimlarni boshqarish vositalarini elektron muhitni tarjima qilish: o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro aloqalar uchun interaktiv elektron muhitni shakllantirish, shu jumladan o'qituvchilar uchun elektron sinflar yaratish, vebseminarlar, munozarli forumlar o'tkazish va yangi turdag'i o'quv vositalarini yaratish: elektron darsliklar, elektron muammoli kitoblar, video ma'ruzalar, elektron topshiriqlar bazasi, kompyuter o'yinlari: - elektron muhit imkoniyatlaridan foydalangan holda ta'limning chuqur yangi shakllarini yaratish-axborotni hayoliy uzatish spektrini kengaytirish, rolli o'yinlar bosqichida turli vaziyatlarni modellashtirish, raqobatbardosh o'yinlarga taqlid qilish va hk:

Suniy intellekt imkoniyatlarini o'quv jarayoniga tadbiq qilish lozim. Hozirgi kunda ta'lim tashkilotlarining aksariyat qismida ta'limni raqamlashtirish jarayonining dastlabki shakli amalga oshirilmoqda. Bu o'quvchilarning o'quv materiallariga kirishini yegillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lмаган o'quv yuklamasini kamaytirish, oquv tartibi va o'quv jarayoni mazmuni ustidan nazoratni osonlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu jarayon uzoqdan boshqarish pultini sezilarli darajada kengaytirishga imkon yaratmoqda. Maktab talimining zamonaviy shakli va mazmuni avvalgi ta'lim tizimidan tubdan farq qiladi. Ta'limni raqamlashtirish-bu elektron tizimga

o‘tish bosqichining nomlanishi. Hozirgi vaqtida kelajakdagи o‘zgarishlar haqida bir nima gapirish mushkul, ammo, hozir biz mana shu xato va kamchiliklarni tuzatishimiz hamda o‘zgartirishimiz mumkin.

Muhokama qismi

Keyingi davrda o‘quv materiallari, rejalar, sinf jurnallari-bularning hammasi onlayn korinishlarga o‘tadi. Hozirgi kunda ham bilim olish uchun talaygina onlayn platforma va dasturlar yaratilgan. Mana shular yordamida o‘quvchilar uydan chiqmasdan, internetdan foydalangan holda darslarni o‘rganishlari hamda onlayn olimpiada va testlar orqali bilimlarini tekshirish imkoniyatiga egalar. Hozirgi kunda maktablar zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda. Har bir ta‘lim dargohlarida axborot tizimiga kirish uchun kompyuterlar, elektron doskalar bilan bir qatorda optik tolali internet bilan ham ta‘minlanmoqda. Hozirgi kun o‘qituvchilar yangilanayotgan va raqamlashtirilayotgan ta‘lim tizimini yetarlicha o‘rganishlari lozim. Negaki, ushbu kasb mohiyati chuqr o‘zgaradi. Talim tizimining raqamlashtirilishi o‘quv materiallarini yakka tartibda o‘rganish imkonini beradi. Mana shu jarayonda o‘qituvchi ko‘makchi, yo‘naltiruvchi vazifalarini bajaradi. Raqamli texnologiyalar bilan tashkil qilinadigan talim tizimi yakka tartibda ishslashni nazarda tutganligi sababli, o‘quvchilar yoshligidan bilimga intilishi, o‘z kuchi, mehnati bilan erishishi kerakligini tushunishadi. Ta‘lim tizimining bunday raqamlashtirilishi kelgusida o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini yanada mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rangli tasvirlar insonning ma’lumotni yaxshiroq yodda saqlab qolishiga yordam berar ekan. Bundan tashqari, ijodiy qobiliyatlarni yanada o‘stirishga ham katta hissa qo`shadi. Shunday ekan o‘quv qo‘llanmalarini raqamli texnologiyalar orqali rang-barang tarzda berilishi o‘quvchilar qiziqishini orttirishi bilan bir qatorda ma’lumotlarni xotirasida yaxshi saqlab qolish imkonini beradi. Aynan mana shu o‘z navbatida ta‘lim sifatini oshishiga katta hissaqo`shadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi sharoitda shaxsni shakllantirish avvalgi an’anaviy usullardan ancha farq qiladi. Bu globallashayotgan axborot makonida uni boshlang‘ich ta‘lim integratsiyasida tatbiq qilishning darjasи jihatidan yangi modelini ishlab chiqishni, hozirgi sharoit uchun zarur bolgan va ularga mos keladigan umuman yangi usullarini o‘zida jamlagan metodik ishlarni shakllantirishni talab qiladi. Nima bo‘lganida ham, zamonaviy pedagogik raqamli texnologiyalarida to‘g‘ri foydalanish boshlang‘ich ta‘lim yoshidagi o‘quvchilarining yutuqlarini kafolatlaydi va kelgusida yuqori sinflarda muvaffaqiyatli o‘qishini ta‘minlaydi. Raqamlashtirilgan ta‘lim tizimidan foydalanish, boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarining kelgusida raqamlashgan jamiyatga kirishishi uchun maqsadli auditoriya a‘zosi bo‘lishi uchun tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Bu, albatta, mакtabning ta‘lim bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga, qo‘srimcha qiymat yaratishga va o‘quvchilarni jalb

qilishga olib keladi. Ikkinchidan ta'limning holatini jahon standartiga moslashtiradi. Bugungi kunda yosh avlodni androidlardek, oqishga bo'lgan qiziqishini oshirishda raqamli ta'lim muhitining yaratilishi ta'lim sifatida ijobiy tasir ko'rsatadi. Dars davomida, mavzuni mustahkamlashda online testlardan foydalanish, o'quvchilar uchun sog'lom raqobat muhitini yaratadi. Ayniqsa o'quvchilar mustaqil ravishda malumotlarni izlash, tahlil qilishga bo'lgan intilishi ortadi. Zamonaviy adabiyotlar, darsliklarda QR kod olish imkoniyatini ma'lumotlarni bat afsil yetkazish imkonini beradi. Yildan yilga darsliklardi ilmiy yangiliklar ortib bormoqda. Bu ilmiy yangiliklar xalqaro baholash dasturlari PISA, STEAM, PIRLS nizomlariga to'liq javob beradigan darsliklar deb ayta olish mumkin. Bu kabi darsliklar bilan birgalikda dars o'tish uchun metodik qo'llanmalarni xam birdek yetkazib berish o'qituvchilar uchun xam qulaylik yaratadi. Dars o'tish jarayonini har tomonlama qo'llab quvvatlash maqsadida hukumatimiz tomonidan darsliklarning yillik foydalanish to'lovi bepul etilib belgilandi. Bu ham ta'limga qaratilgan e'tiborning natijasi o'laroq yuzaga kelgan.

Foydalaniqan adabiyotlar

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. / www.ziyo.net.
2. Jabborova O.M, Saparboyeva D. Boshlang'ich ta'limda mustaqil talini tashkil etish metodikasi Chirchiq 2023.y
3. Gulhayo Umarova Murodiljanovna,Qayumho'jayeva Fazilat Dilshod qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan munosabati//Journal of integrated education and research. Volume2 ,ISSUE 1 January 2023.pp 150-154.
4. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Rasulova Arofat Zafarjon qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni aniq fanlarga qiziqishini oshirish metodikasi// Conference a virtual international. ARTICLES 2023.march pp 163-172.
5. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Xamraqulova Orasta Alisherv qizi. Inklyuziv ta'lim va uning bugungi kundagi rivojlanishi//Conference;2022;9th CARHSE-england decabr108-111.

**TARGETED APPROACHES OF THE TEACHER IN STUDENTS'
UNDERSTANDING OF HISTORICAL REALITY**

Usmanaliyeva Risolat Umaraliyevna

Senior teacher of the Surkhandarya regional pedagogical skills center

Abstract. *The article examines the science of history and its essence, historical reality, as well as what works and means are necessary for students to understand and feel historical reality not only during the lesson, but also in the general social environment. It also reveals our history, the great material and spiritual heritage left to us by our ancestors, our current opportunities, our future dreams and prospects, as well as pedagogical tasks on the way to achieving them.*

Key words: thinking, creative thinking, socialization, historical reality, logical sequence, creativity, competence, intellectual, moral education, forecast, integration.

INTRODUCTION.

As we know, the renewal of education, of course, involves the formation of a free, competent, selfless person through the educational process, who can vividly imagine the future of himself and his loved ones, who is conscious of his fate in this regard, and who can develop himself in his chosen professional activity. In the new Uzbekistan, ample opportunities are being created to educate young people who are able to think in a new way, who can freely and objectively respond to current events, who have learned the secrets of creative and critical communication [1]. Now educational institutions are faced with the task of forming not only an educated person, but also a rational and well-rounded person who can foresee events, has the ability to make the right decisions, and understands the need for self-development.

In today's information age, the formation of historical consciousness and historical thinking, the formation of a sense of respect for the history of our homeland and the national and universal values of the peoples of the world, the realization of the fact that the history of our national statehood is an integral part of world civilization, the formation of basic and relevant competencies in history are certainly among the most urgent issues of today. From this perspective, it is also very important to learn from the spiritual heritage and courage of our ancestors, to teach them to be worthy successors.

By directing them to perceive historical events, to understand their identity, to develop concepts that help them mature as individuals, and to educate them in the spirit of national and universal values, is also one of the most important tasks of today[10]

It is worth noting that a history teacher must be ready for active scientific research and professional methodological activities, be a researcher himself and know how to design research activities of his profession, and for this, the following is necessary in educational institutions:

to cultivate in himself the need to regularly familiarize himself with scientific and methodological literature;

to develop skills in performing various scientific and methodological works;

to cultivate the ability to think creatively;

to study the art of making rational and far-sighted decisions, taking into account the trends in the development of science.

LITERATURE REVIEW.

Russian scientist A.A. Verbitsky emphasizes: "Since professional activity is provided not with knowledge of a single, demonstrative subject, but with its system, this requires the integration of these academic disciplines. The didactic conditions of such integration require the emergence of advanced pedagogical technologies, organizing the educational process in new forms, which, together with traditional ones, require the emergence of advanced pedagogical technologies" [5].

Today, "the formation of an independent and free-thinking person capable of consciously participating in socio-political life, responsible for the fate of his country and family" is considered an important task. Therefore, ensuring the continuity of these pedagogical technologies depends, of course, on the pedagogical skills of the teacher [2].

According to N. Muslimov and Sh. Sharipov, in order to develop creative thinking, an individual approach to each of them is necessary. One of the most important methods of developing creative thinking is to involve students in solving problematic questions or tasks of different levels, and to teach them to independently find solutions to them [7]. In practice, problem questions or tasks can be used in the process of developing creative thinking.

ANALYSIS AND RESULTS.

There are many ancient, medieval, modern and modern great scholars' reflections on the problem of creativity in history. A special understanding of creativity arises in the Middle Ages, first of all, as "historical creativity".

According to the medieval imagination, history is a person's participation in the realization of the divine in the world. This makes creativity the basis for understanding creativity as the creation of something unique and irreversible. In this, the sphere of creativity is, first of all, historical creativity, moral and religious deeds. Artistic and scientific creativity serve as secondary [3].

A creative approach to education is an opportunity to fully implement person-oriented teaching [5]. Since there is freedom in creative imagination, it is interconnected with invention, because it contains an aspect of necessity (creativity), it is directly related to the ideas of intelligence and, ultimately, to the spiritual world.

The problems of creativity were studied by Joseph Schelling, who considered the creative faculty of imagination to be a unity of conscious and unconscious activity, since the most gifted possessing this faculty - genius - creates in a state of wonder, as in the

creation of nature, unconsciousness, the process is still reduced to the state of human subjectivity and, therefore, depends on his freedom[6]. According to Schelling, the work of the artist and philosopher represents the highest form of human life activity.

Important processes and situations such as being able to explain the meaning of historical toponymic terms that are important in describing historical reality, being able to use additional literature and sources to provide information about historical processes and events, adhering to information culture when using and responding to historical and artistic works and information provided in the media, independently studying historical sources, collecting additional information on the topic, drawing conclusions, evaluating, expressing an independent opinion, independently selecting historical literature on the topic, preparing independent works and presentations, and compiling one's own family tree are continuously taught to students during the educational period. And at the same time, students gradually develop a sense of understanding and feeling historical reality[4].

As science and technology develop rapidly, the scope of scientific concepts and ideas increases. On the one hand, it provides for the differentiation of new areas and departments of science and technology, and on the other hand, the integration of sciences occurs. Therefore, self-awareness begins, first of all, with knowledge of history. A person with historical memory is a strong-willed person, and without knowing the true history, it is impossible to create the future. In this sense, the science of history sets itself the following goals and tasks:

Teaching and explaining the science of history is carried out through the following tasks:

to learn from the spiritual heritage and courage of our ancestors, to become worthy successors to them;

to constantly encourage the preservation of ancestors and the heritage they left to their descendants;

to understand the identity of listeners by directing them to perceive historical events;

concepts that help a person to mature as a person, to educate in the spirit of national, universal values;

It is worth mentioning that in order to become a mature and qualified specialist, it is necessary to study our history in depth, and at the same time to learn from history as much as necessary.

Also, important tasks were set in the republican education system, such as "Continuous improvement of the quality and level of professional skills of pedagogical personnel", training highly qualified, creative and systematic thinking personnel, able to make independent decisions based on international standards, creating conditions for the manifestation of their intellectual abilities and the formation of a spiritually mature person"[10].

In addition to knowing the content of historical events, students need to be able to compare historical events with each other, think independently and evaluate them, explain the essence of events, and express them in writing. It is important to be able to distinguish primary and secondary events, analyze them socially, and draw conclusions.

Based on the above considerations, the main purpose of studying history is clear: to form historical thinking through the study of history, to understand oneself, and to prevent spiritual gaps;

to instill the fact that “History is the basis of people's spirituality” based on historical events and phenomena;

to form and develop a sense of responsibility for the fate of the homeland and nation, involvement, and respect for universal and national values;

to learn moral education and lessons from the deeds and feats of our great ancestors by understanding that the history of our country is a part of world history;

Instilling in them the need for every nation to protect its history from various influences and aggressions;

explaining that there is no future without historical memory, among other things.

CONCLUSION.

Information, conclusions, and a sense of pride from history are a source of confidence for a person to take a step into the future. Instilling a deep sense of respect for history is closely related to the pedagogical skills, potential, and deep knowledge and professional competence of us, history educators.

References:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. “O‘zbekiston” T.: 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019yil 8-oktyabr // qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887son.
3. Migranova E., Pozilova Sh. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish. T.: “Aloqachi”, 2017 y, 56 betlar.
4. Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda loyihalashtirishning amaliy asoslari. (O‘quv qo‘llanma). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2022, 46 b
5. Вербицкий А.А. Гуманитарное образование в современной России // Высшее образование в России. 1996. -№1. –С. 79-84.
6. Qurbanov Sh. Ta’lim sifatini boshqarish. –T.: Turon-Iqbol, 2006. -592 b.

7. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Avtoref. dis. ...ped.fan.dok. – T.: TDPU, 2007.-47 b.
8. Umarova M. va boshqalar. Pedagogikaning taraqqiyot tendentsiyalari va innovatsiyalari. – T.: TDPU, 2016 – 124 b.
9. Tulenov J., Jabborov T. Tarixiy ongni rivojlantirish –davr talabi.- T.: Mehnat, 2000. -7 b.
10. Abdullayeva D.S. Milliy tarixiy xotiraning mohiyati va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil).: Dis. ... fal.fan.nom. –T., 2006. – 115 b.

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI
RIVOJLANTIRISHDA SHE‘RLARNING O‘RNI**

I.B.Madraximova

CHDPU, Boshlang‘ich ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

M.M.Xudayberganova

CHDPU, Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Siz ushbu maqolada o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari, she‘riyati haqida ma ‘lumotlarga ega bo’lasiz. Bugungi kun bolalar yozuvchilari ijodiyoti haqida ma ‘lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek va jahon adabiyoti namunalari, she‘riyat, yozuvchilar uyushmasi, bolalar jurnallari.*

Abstract. *In this article, you will get information about examples of Uzbek and world literature, poetry. Information about the creativity of children’s writers is presented today.*

Key word: *examples of Uzbek and world literature, poetry, writers’ union, children’s magazines.*

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda she‘rlar muhim rol o‘ynaydi. She‘riyat asrlar davomida insonlarning hayotida muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari juda muhim. Alisher Navoiy g‘azallari bunga yaqqol misol. Har bir asar, she‘r o‘sha vaqt insonlarini hayotini kechmishini, muammolarini yozuvchining qalb kechinmalarini ifodalagan. Bugungi kunda bolalar she‘riyati alohida o‘ringa ega deb ayta olaman. Chunki bolalar jurnallari, tahriri yosh qalamkashlarning ijodini qo‘llab quvvatlaydi. Bolalar yozuvchilari Po‘lat Mo‘min, Erkin A‘zam, Usmon Nosir, Anvar Obidjon, Xudayberdi To‘xtaboyev, Erkin Vohidov, Xurshid Davron kabi bir qator yozuvchilar bolalar uchun turli yo‘nalishlarda she‘rlari kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladi. Bugungi kunda yozuvchilar uyushmasi tomonidan bolalar she‘riyati yozuvchilari uchun bir qator imkoniyatlar yaratildi. Xususan ularning asarlari kitob xolida, elektron holida kutubxonalarda mavjud.

She‘rlar, o‘z navbatida, bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi, she‘rlarda shoir so‘zlarni oson yengil xalqona ko‘rinishidan foydalanishni kitobxonlarni qiziqishini oshiradi. Bu holat til ko‘nikmalarini rivojlantiradi va emotSIONAL intellektlarini oshiradi. Quyida she‘rlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashidagi ahamiyati keltirilgan:

Tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirish: She‘rlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi. Ular she‘rlarni o‘qish yoki yozish jarayonida yangi obrazlar, ranglar va hiss tuyg‘ularni tasavvur qilishlari kerak. Bu ijodkorlikni rag‘batlantiradi va o‘z fikrlarini ifodalashga yordam beradi.

Til ko'nikmalarini oshirish: She'rlar yangi so'zlar, iboralar va grammatik tuzilmalarni o'rganishga yordam beradi. Bolalar she'rlarni o'qish orqali lug'atlarini boyitadi va tilni yanada boyroq ishlatalishni o'rganadilar.

Emotsional rivojlanish: She'rlar ko'pincha his-tuyg'ularni ifodalaydi. O'quvchilar she'rlar orqali turli his-tuyg'ularni tushunish va ifodalashni o'rganadilar, bu esa ularning emotsional intellektini rivojlantiradi.

Tahlil va tanqidiy fikrlash: She'rlarni o'qib, ularni tahlil qilish bolalarga matnni tushunish, uning mazmunini ochib berish va turli nuqtai nazarlarni baholash imkonini beradi. Bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Madaniyat va an'analarni o'rganish: She'rlar orqali bolalar o'z xalqining madaniyati, an'analari va tarixidan xabardor bo'lishadi. Bu ularning identitetini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Guruhiba ishlash va hamkorlik: She'rlarni o'qish yoki yozish jarayonida bolalar birgalikda ishslashlari mumkin. Bu ularga jamoada ishlash, fikr almashish va bir-biriga yordam berishni o'rgatadi. She'r yozish jarayoni bolalarga o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va tajribalarini ifodalash imkoniyatini beradi. Bu o'z-o'zini anglash va shaxsiy rivojlanishga yordam beradi. Umuman olganda, she'rlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib, ularni yanada ijodiy, o'z-o'zini anglaydigan va emotsional jihatdan rivojlangan shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Bolalar she'riyati, ularning tasavvurlari va his-tuyg'ularini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun bolalar she'rlarida quyidagi elementlarga e'tibor berish mumkin:

Bolalar she'riyatida rang-barang tasvirlar va metaforalar ishlataladi. Masalan, "qushlar ko'kda uchib, bulutlar bilan o'ynaydi" kabi iboralar.

She'rlar odatda ritmik tuzilishga ega bo'ladi, bu bolalarga so'zlarni yodlash va ulardan foydalanishni osonlashtiradi.

Bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalashda erkin bo'lishlari kerak. Ular baxt, g'azab, qo'rquv kabi hislarni she'rlarida aks ettirishi mumkin. Bolalar uchun qiziqarli bo'lgan mavzular - tabiat, do'stlik, o'yinlar, hayvonlar va boshqa ko'plab narsalar. Har bir bola o'z fikrlarini va tasavvurlarini o'ziga xos tarzda ifodalashi mumkin. Bu ularning ijodiy fikrlashini yanada rivojlantiradi. Misol uchun, quyidagi oddiy she'r bolalar uchun yozilgan:

Bahor kelishi

Bahor keldi, qushlar kuyladi,

Gul-lar ochilib, yerni bezadi.

Quyosh porlab, samoda yaltiraydi,

Tabiat uyg'onar, hayot boshlanadi.

Bolalar she'riyatida kreativ fikrlashni rag'batlantirish uchun ularga o'z she'rlarini yozish yoki mavjud she'rlarni o'zlariga moslashtirishni taklif qilish mumkin. Bu ularda ijodiy fikrlash va o'z his-tuyg'ularini ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili.

Po'lat Mo'min o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'rinni tutgan shoirlardan biridir. U o'z asarlarida insoniy his-tuyg'ularni, tabiat go'zalligini va hayotning turli jihatlarini chuqur ifodalaydi. Uning she'rlari ko'pincha oddiy va samimiy, ammo bir vaqtning o'zida chuqur ma'noga ega bo'ladi. Po'lat Mo'min she'riyati, ko'pincha quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi:

Tabiat: Tabiat go'zalligi, uning o'zgarishi va inson bilan aloqasi.

Insoniy his-tuyg'ular: Sevgi, do'stlik, umidsizlik va umid kabi his-tuyg'ular.

Hayot va o'lim: Hayotning ma'nosi, o'lim va uning inson hayotidagi o'rni.

Ijtimoiy masalalar: Jamiyatdagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari.

Anvar Obidjon o'zbek she'riyatida o'ziga xos ovozga ega bo'lган shoirlardan biridir. U o'z asarlarida inson ruhiyatini, hayotning murakkab jihatlarini va tabiatni chuqur tasvirlaydi. Anvar Obidjonning she'rlari ko'pincha zamonaviy hayot, ijtimoiy masalalar va insoniy his-tuyg'ular haqida bo'ladi. Inson va tabiat: Anvar Obidjon o'z she'rlarida insonning ichki dunyosini, uning tabiat bilan aloqasini va muammolarini chuqur tahlil qiladi. Sevgi: Sevgi, uning go'zalligi va og'irliklari shoirning ko'p asarlarida aks etadi. Hayot va umid: Hayotning turli qiyinchiliklari va ulardan chiqish yo'llari, umid va ishonch mavzulari ham uning she'riyati uchun muhimdir. Anvar Obidjon jamiyatdagiadolatsizliklar, muammolar va insonlarning o'zaro munosabatlarini oprganadi.

Anvar Obidjonning she'rlari ko'pincha o'ziga xos ritm va melodiya bilan ajralib turadi. U oddiy, lekin chuqur ma'noli so'zlardan foydalanadi, bu esa uning asarlarini yanada ta'sirchan qiladi.

20-asr she'riyati tahlili

O'zbek she'riyati o'zining xilma-xilligi, yangilanishi va ijtimoiy-siyosiy voqealarga javob berishi bilan ajralib turadi. Ushbu davrda o'zbek she'riyatida ko'plab muhim o'zgarishlar va yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Quyida 20-asr o'zbek she'riyati haqida ba'zi muhim jihatlar keltirilgan:

20-asrning dastlabki yillarda jadidchilik harakati o'zbek adabiyotida yangiliklarni olib keldi. Jadid shoirlari an'anaviy she'riyatni tanqid qilib, yangi shakl va mazmunni izladilar. O'zbek she'riyatida ijtimoiyadolatsizlik, urushlar, xalqning og'ir hayoti kabi mavzular keng yoritildi. Shoirlar xalqning dardini ifodalashga intildilar. O'zbek she'riyatida modernizm, simbolizm va boshqa zamonaviy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bu esa shoirlarning ijodida yangi shakl va uslublarni yaratishga olib keldi.

Abdulhamid Cho'lpov: O'zbek she'riyatining klassik an'analarini zamonaviy shakllar bilan birlashtirgan shoir. Hamid Olimjon: O'zbek adabiyotida romantik uslubni rivojlantirgan shoir. Erkin Vohidov: O'zbek she'riyatining eng mashhur

namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlari ko‘p hollarda ijtimoiy va falsafiy mavzularni qamrab oladi. Muhammad Yusuf: O‘zbekistonning zamonaviy shoirlaridan biri bo‘lib, uning ijodi ko‘plab avlodlarga ta‘sir ko‘rsatdi. Asrning oxirida O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, she‘riyatda yangi mavzular va erkin ifoda shakllari rivojlana boshladи. Bu davrda shoirlar o‘z milliy identitetini, tarixini va kelajagini aks ettirishga intildilar. Bu davrda o‘zbek she‘riyati o‘zining boy tarixi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi, bu esa uni o‘rganish uchun juda qiziqarli qiladi.

Xulosa. Bolalar she‘riyati bu bolalarning ruhiyatini, o‘yin-kulgi va hayotga bo‘lgan qiziqishini aks ettiruvchi, ularning tushunish darajasiga mos keladigan she‘riyat turidir. Bolalar she‘riyati ko‘pincha o‘yinchoq, tabiat, do‘stlik, sevgi va hayotdagi oddiy, lekin muhim narsalar haqida bo‘ladi. Ushbu she‘rlar bolalarning tasavvurlarini kengaytirish, ularni tarbiyalash va estetik his-tuyg‘ularini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

1. Sodda va tushunarli til: Bolalar she‘rlari ko‘pincha oddiy va tushunarli so‘zlardan iborat bo‘ladi, bu esa bolalarga ularni osonlik bilan anglash imkonini beradi.

2. Ritm: Bolalar she‘rlari ko‘pincha ritmik va rimaning o‘ziga xos tuzilishi bilan ajralib turadi, bu esa ularni eslab qolishni osonlashtiradi.

3. O‘yin-kulgi: Bolalar she‘riyatida o‘yin, kulgi va qiziqarli vaziyatlar ko‘p uchraydi, bu esa bolalarni qiziqtiradi va ularga zavq bag‘ishlaydi.

4. Tabiat va atrof-muhit: Ko‘plab bolalar she‘rlari tabiatni, hayvonlarni va ularning hayotini tasvirlaydi, bu esa bolalarda tabiatga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi.

5. Do‘stlik va sevgi: Bolalar o‘rtasidagi do‘stlik, oilaviy munosabatlar va sevgi mavzulari ham ko‘p hollarda yoritiladi.

O‘zbek va jahon adabiyoti she‘riyatida bolalar uchun yozgan shoirlar orasida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Anvar Obidjon, Xudayberdi To‘xtaboyev va boshqa zamonaviy shoirlar mavjud. Ularning asarlari bolalar uchun qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bolalar she‘riyati bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda, ularning hissiyotlarini ifodalashda va estetik didlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu she‘rlar orqali bolalar dunyonи o‘rganadilar, tasavvurlarini kengaytiradilar va hayotga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradilar.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Muhammad Yusuf she‘riy to‘plamlar Toshkent 2010 y.
2. Bolalar she‘riyati Toshkent 2011y.
3. Bolalar she‘riyati to‘plami Toshkent 2015 y.
4. Anvar Obidjon she‘rlar to‘plami T .2017 y.
5. Internet sayt she‘riyat uz .partali .

O'ZBEK MILLIY PEDAGOGIKASI

Yuldasheva Farzona

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Аннотация: В данной статье говорится об узбекской педагогике, ее методах исследования и их видах. Педагогическая концепция находит отражение в научных статьях, периодических изданиях, темах конференций и докладах, а также освещаются научные труды ученых, занимающихся данной тематикой. Кроме того, разработаны выводы и предложения по повышению роли современных педагогических технологий в развитии педагогики.

Ключевые слова: отечественная педагогика, современные педагогические технологии, принципы обучения, методические разработки.

Annotation: This article talks about Uzbek pedagogy and its research methods and their types. Pedagogical concept is reflected in scientific articles, periodicals, conference topics and reports, and scientific works of scientists dealing with this subject are also covered. In addition, conclusions and suggestions on increasing the role of modern pedagogical technologies in the development of pedagogy have been developed.

Key words: national pedagogy, modern pedagogical technologies, educational principles, methodological developments.

KIRISH

O'zbek Xalq pedagogikasi uzoq tarixga ega va millatdagi eng konservativ, sekin o'zgaradigan, ana shu xususiyati tufayli xalqning o'ziga xos qiyofasi saqlanib qolishini ta'minlaydigan hodisa ekanligiga qaramay, o'z taraqqiyoti davomida bir qator o'zgarishlarni boshidan kechirdi. O'zbek Xalq pedagogikasi ning taraqqiyot tarixi islomgacha bo'lgan davr xalq pedagogika si, islom ta'siri davri xalq pedagogikasi, tashqi ta'sirlar davri xalq pedagogikasi, mustaqillik davri xalq pedagogikasi singari bosqichlardan iborat. O'zbek Xalq pedagogikasining bu tarzda davrlashtirishda xalq ruhiyati, yashash va fikrlash tarzidagi tub sifat belgilaringin o'ziga xosligi hisobga olingan. Ko'p ming yillik tarixga ega o'zbek xalqi ilmiy va moddiy buyum tarzidagi dalillarga ko'ra, islom dini qabul qilingungacha bo'lgan vaqtida tamomila o'ziga xos tarzda hayot kechirgan.

Olam hodisalarini o'zgacha yo'sinda tushungan va izohlagan, hayotdan boshqacha ta'sirlangan va ta'sir ko'rsatgan, tiriklik va o'lim, u dunyo va bu dunyo, ezgulik va yovuzlik, go'zallik va xunuklik, savob va gunoh, halol va harom singari tushunchalar o'zgacha mazmun anglatgan. "Avesto" asari yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, shuningdek, Selengur, Xorazm, Bolaliktepa, Issiqliq, Chust, Rishton va Burchmulladan topilgan obidalar shundan dalolat beradi. Islom dinining qabul qilinishi o'zbek xalqining turmush tarzini tamomila o'zgartirib yubordi, uni olamning musulmonlar deb atalmish ko'p sonli qavmi bilan yaqinlashtirdi, xalqning turmush tarzi,

madaniyati, ma'naviyati, ruhiyati, iqtisodi va ijtimoiy turmushiga favqulodda katta ta'sir ko'rsatdi. Ayni vaqtda, xalq o'zining azaliy milliy qiyofasini ham saqlab qoldi. Chunki u qadimdan puxta shakllangan va qat'iy amal qilinadigan udumlar, odatlar, an'analar tizimiga ega edi. Xalq islomni qabul qilgandan keyin uning yashash, fikrlash, ta'sirlanish tarzida sodir bo'lgan o'zgarishlar Xalq pedagogikasida aks etdi. Endi xalq halol va harom, gunoh va savob, taqdir, qismat, u dunyo va bu dunyo, hayot, o'lim hamda qayta tirilish borasida tamomila yangi qadriyatlarni o'zlashtirdi, ularni hayot tarziga, udumlarga, urfodatlarga, an'analarga, marosimlarga, ya'ni pedagogikaga aylantirdi. Bu davrdagi xulqatvor, an'ana, udum, odatlar ma'naviy turmushdagi ayni shu jihatlarni aks ettiradigan bo'ldi.

O'zbek millati juda uzoq vaqg mobaynida islom dini ta'siridagi Xalq pedagogikasiga amal qilgan holda yashadi. XIX asrning 2-yarmiga kelib, Rossiya bosqini sababli o'zbek xalqining turmush tarzi, fikrlash yo'sini, tarbiya tamoyillarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Faqat islom dini belgilagan turmush tarzi, akida, an'ana va odatlar bilangina yashash mumkin bo'lmay qoldi. Xalqning ongi, axloqi, fikri, turmushi o'zgarishi bilan uning pedagogikasi ham o'zgarishlarga uchradi. Yangi an'ana va odoblar paydo bo'ldi, ayrim pedagogik qadriyat, axloqiy aqidalar esa yo'qoldi. Xalq pedagogikasidagi yo'qotishlar, ayniqsa, sho'ro davrida keng tus oldi.

Xalq pedagogikasi tufayli shiddatli o'zgarishlar girdobida qolgan o'zbek millati o'z qiyofasini saqlab qola bildi. Istiqlol natijasida esa o'zbek xalqining fikrlash, yashash, olamni anglash va izoxlash yo'sini yangilandi, xalq ruhiyati, ma'naviy qiyofasi o'zgardi. Bu o'zgarishlar xalqning turmush tarzida paydo bo'layotgan yangi odat, an'ana, xulqatvor, urf va udumlar tarzida namoyon bulmoqda. Mustaqillik davri Xalq pedagogikasida ko'plab islomiy an'analar qayta tiklanib, amaliy tarbiya jarayoniga tatbiq etila boshlandi. Xalq pedagogikasi tarixiy tushuncha sifatida hozirgi kunda ham zamon talablariga moye ravishda boyib bormoqda va jiddiy amaliytarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda. Xalq pedagogikasi - tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui; muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan va urfodat, udum, xulqodob, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod, uyin singari empirik vositalarda namoyon buladigan amaliy faoliyat hamdir. Xalq pedagogikasi fanda etnopedagogika deb ham yuritiladi. Pedagogika fanida Xalq pedagogikasiga xos eng muhim belgilaridan biri uning qadimiyligidir. Har qanday xalq muayyan etnos sifatida mavjud bulishi uchun o'ziga xos qiyofaga ega bo'lishi kerak. Xalqning ijtimoiy, ma'naviy, intellektual qiyofasi esa uning pedagogika vositasidagina shakllanadi. Xalq pedagogikasi muayyan xalqning o'zi bilan birga dunyoga kelgani uchun ham uning tarixi xalq tarixi bilan teng. Xalq pedagogikasining ikkinchi belgisi uning to'liq amaliy xususiyatga egaligidir. Xalq ta'lim-tarbiya jarayoni va uning natijalariga pragmatik nazar

bilan qaragani uchun Xalq pedagogikasi g‘oyalar shaklida emas, balki urfodat, an’ana, amal, udum, xulqodoblar tarzida namoyon bo‘ladi.

Xalq pedagogikasi ta’limtarbiya haqidagi fikrlar yig‘indisi emas, balki amal qilinishi majburiy bo‘lgan va bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadigan amaliy xulqiy ko‘nikmalar va sh.k. majmuidir. Xalq pedagogikasining uchinchi xususiyati uning muallifi noma'lum, anonim pedagogika ekanligidir. Xalq pedagogikasi talablarining yaratuvchisi ma'lum bo‘lmaganligi uchun ham muqaddas sanalgan va so‘zsiz bajarilgan. Etnopedagogikaga doyr biror talabning muallifi ma'lum bo‘lsa, uning ta’siri pasayib ketadi. Chunki u, kim bo‘lsada, qandaydir bir odamning istagi sifatida qabul etiladi. Anonimlik esa urfodat, udum, xulqodatlarga sirlilik, muqaddaslik tusini beradi. Xalq pedagogikasining to‘rtinchı belgisi uning sinkretik (qorishiq) xususiyatga egaligidir. Xalq hayoti ko‘p qirrali ekani holda yaxlit bo‘lgani singari uning pedagogikasi ham qorishiqdir. Xalqning turli yo‘nalishdagi pedagogik tadbirlari sinkretik tarzda birvarakaiiga olib borilgani uchun Xalq pedagogikasiga alohidalik emas, umumiylilik xosdir. Xalq pedagogikasining beshinchi belgisi uning keng yoyilganligidir.

Xalq pedagogikasiga oid amallar muayyan etnik birlikning hammasiga birday tatbiq qilinadi. Muayyan shaxslarning xohishirodasi qandayligidan qat’i nazar, xalqning har bir vakili uning tarbiya va yashash tarziga doyr talablariga rioya etishga majbur. Xalq pedagogikasi talablarini bajarishda tarbiyalanuvchining istaklari inobatga olinmaydi. Muayyan etnik birlikning turmush tarzida namoyon bo‘lishi Xalq pedagogikasining oltinchi xususiyatidir. Xalq pedagogikasi empirik tabiatga ega bo‘lib, jamiyat a’zolari hayotini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan va uning qoidalari muhokama uchun emas, balki turmush mobaynida amal qilish uchundir.

Pedagog tarbiya jarayonining qonuniyatları, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o‘quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo‘sinlarini belgilab beradi. Shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikanidagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. O‘qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta’milanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo‘ladi. Tarbiyalash va o‘qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxe tarbiyalash va o‘qitish orqali o‘zida oldin bo‘lmagan ma’naviy-intellektual sifatlarga ega bo‘ladi. Bu hol shaxsnинг umri mobaynida uzlucksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo‘ladi. Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida Pedagogika falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, matematika va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, taxlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalananadi.

Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarni shakllantirish masalalarini pedagogikaningning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyani tashkil etish, uyuhtirish va uni boshqarish singari tashkiliy-pedagogik ishlar qonuniyati pedagogikaning mak-tabshunoslik sohasi tomonidan ishlab chiqiladi. pedagogika hamisha muayyan yoshdagi, ma'lum hayotiy va akliy tajribaga ega bo'lgan kishilar bilan ish ko'radi. Shuning uchun ham pedagogikanining qonuniyatlarini belgilashda ta'limtarbiya oluvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbek P.si juda qad. tarixga ega bo'lib, uning dastlabki ildizlari Avestota, Urxun-Yenisey bitiklariga, Selungur madaniyatiga borib taqaladi. Ave-stodagi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal haqidagi, kishilarga ko'ngil ma'rifa-ti berish borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogik qarashlarning dastlabki namunasi bo'lib, yetuk insonni shakllantirishga yo'naltirilgan. Milliy Pedagogikaning taraqqiyotida islom dini va tasavvuf ta'limoti hal qiluvchi o'rinn tutadi. Chunki Qur'oni karim, Xadisi sharif va tasavvuf ta'limo-tining markazida axloq, komil inson ma'naviyatini shakllantirish turardi. Komil inson ta'lim-tarbiya yordamida, ya'ni Pedagogika vositasida tarkib toptirilishi mumkin edi. Forobiyning "Fozil odamlari", Beruniy, Ibn Sino falsafiy qarashlaridan o'rinn olgan yetuk shaxslar, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida tasvirlangan benuqson odamlar, Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab orzulagan komil inson uzbek P.sining markazida turardi. 17-asrdan boshlab, milliy Pedagogikada ta'lim-tarbiyaning mohiyatiga emas, balki tashqi jihatlariga e'tibor kuchaydi, turmush talablarini hisobga olmay, hayotiy zamindan uzilish sodir bo'ddi. Natijada, jamiyat taraqqiyoti susaydi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham tanazzulga yuz tutildi. P.dagi biqiqlik, biryoqlamalik kishilar ruhiyatiga ko'chdi, undan ijtimoiy tartibotlar va siyosiy qurilmalarga o'tdi. Butun bir davlat xonliklarga bo'linib ketdi. Xonliklarning har birining ichida bir-biri bilan kelishmovchilik hamda o'zaro janjallar avj oldi. Negaki, jamiyat va unda yashaydigan insonlarning ma'naviy o'rnaklari puxta tayin etilmagan edi.

XULOSA

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida millim ong bo'g'uvdan, mafkuraviy qolipdan, buyruqqa muvofiq fiqolash zug'umidan qutuldi. Bu hol Pedagogikaning sog'lom aql, milliy ruhiyat va an'analarga moye tarzda yo'lda qo'yilishiga imkon yaratdi. Bugungi o'zbek Pedagogikasi millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan qolda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Bu Pedagogika

